

## **CHORVACHILIKNI INTENSIV RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN SAMARALI FOYDALANISH**

**Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna**

QarMII “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

**Maxmudov Akbarshoh**

QarMII “Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim yo‘nalishi talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada chorvachilik sohasini intensivlashtirishda xorij tajribalari va ulardan samarali foydalanish yo‘llari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shuningdek, intensivlashtirish borasida yangi taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** chorvachilik, rivojlantirish, davlat qo‘mitasi, investitsiyalar, veterinariya, intensivlashtirish, iqtisodiy samara.

### **Kirish**

Ayni paytda jahonda yuz berayotgan voqeа-hodisalar silsilasi oziq-ovqat xavfsizligi va ta’minoti masalasining muhimligini yanada oshirmoqda. Muayyan jarayonlar sabab bahorgi pallada oziq-ovqat taqchilligi sezila boshlaganini xalqaro ekspertlar va soha mutaxassislari tashvish bilan ayta boshladi. Hatto dunyoning rivojlangan davlatlarida ham oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin ko‘tarilgani kuzatildi.

Ming shukrki, mamlakatimizdagи izchil va aholini rozi qilishga qaratilgan siyosat tufayli bozorlarimizda oziq-ovqat mahsulotlari narxida keskin o‘zgarish sezilmayapti. Bu borada olib borilayotgan say-harakatlar bozor mexanizmlarining bir maromda saqlanib turishiga xizmat qilyapti. Jumladan, aholi oziq-ovqatining muhim qismi bo‘lgan go‘sht, sut va parranda mahsulotlarining qiymatida ham tebranish kuzatilayotgani yo‘q.

Bu haqda so‘z ketganda, davlatimiz rahbarining 2017-yil 1-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat veterinariya qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ushbu sohaga e’tiborni yangi bosqichga olib chiqqanini ta’kidlash joiz. Mazkur qaror asosida veterinariya bo‘yicha xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yishning dastlabki jarayoni boshlandi. Shu yili mamlakatimiz Jahon hayvonlar sog‘lig‘ini himoya qilish tashkiloti bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Hukumatimiz va Xalqaro epizootik byuro o‘rtasida veterinariya sohasida hamkorlik qilish bo‘yicha kelishuv imzolandi. Kelishuv asosida yurtimizda veterinar osoyishtalikni ta’minlashni jahon standartlariga tenglashtirish uchun byuroning to‘qqiz nafar eksperti jalb qilindi.

E'tiborlisi, Prezidentimizning 2019-yil 28-martdagи "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, qo'mitaning xalqaro aloqalar va investitsiyalarini jalb qilish boshqarmasi tashkil etildi hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik rivoji yangi pog'onaga ko'tarildi.

Shu o'rinda xalqaro hamkorlikdan bizga qanday manfaat bor, degan savol tug'ilishi tabiiy. Tan olish kerak, aholi, xususan, fermer xo'jaliklarining ichki resursi bilan chorvachilikni yanada rivojlantirish qiyin. Chunki chorvachilikda qo'llanadigan zamonaviy uskuna va jihozlar, texnika dunyo miqyosida juda qimmat turadi. Misol uchun, bir vaqtning o'zida ellik bosh sigirdan sut sog'ib olish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan xonani barpo etish, zarur uskunalar kompleksi bilan jihozlash uchun kamida 7-8 milliard so'm kerak. Buncha sarf-xarajatga uncha-muncha fermerning qurbi yetmaydi. Bankdan kredit olsa, daromadini bo'lishish kerak bo'ladi.

Boz ustiga chorvachilik tavakkalchilikka asoslangan yo'nalish hisoblanadi. Kutilmagan vaziyatlar tufayli fermer daromadidan ayrilishi mumkin. Shu bois, sohani rivojlantirishda xalqaro tashkilotlarning grant mablag'larini jalb qilish samarali yo'l hisoblanadi. Ular muayyan loyiha doirasida kerakli uskuna, texnik vositalarni beradi. Evaziga ularga chorvachilik mahsulotini bozor narxida yetkazib berishni zimmamizga olamiz. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar ko'magi mamlakatimizda intensiv chorvachilikni yuzaga chiqarib, chorva bilan shug'ullanuvchi fermerlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Asosiy qism**

Ma'lumki, ishlab chiqaruvchi qancha kam mablag' sarflasa, mahsulot tannarxi shuncha arzon bo'ladi. Qiymat pasayishi, o'z navbatida, bozorlarimiz, dasturxonimiz to'kinligi va xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Xalqaro munosabatlarni mustahkamlash maqsadida qator davlatlar bilan kelishuvlar imzolandi. Jumladan, 2019-yilda Xitoy Xalq Respublikasiga ishlov berilgan jun, kashemir, asal va ichak mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha protokol, 2020-yilda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda Vengriya agrar palatasi va Vengriya chorvadorlar ittifoqi o'rtasida chorvachilik sohasidagi bitim, 2021-yilda Turkiya Respublikasi Qishloq va o'rmon xo'jaligi vazirligi bilan Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi o'rtasida baliqchilik sohasida hamkorlik to'g'risida o'zaro anglashuv memorandumi hamda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hukumatlari o'rtasida baliqchilik sohasida hamkorlikka oid bitim imzolandi. Bundan tashqari, Belarus, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Germaniya, Yaponiya, Latvianing tegishli vazirlik va idoralari bilan veterinariya va chorvachilik sohasida memorandum loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimizda veterinariya va chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish uchun xalqaro moliya tashkilotlarining grant mablag'larini jalb etish yo'lga qo'yildi. Jumladan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bilan veterinariya, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik sohalarini rivojlantirish bo'yicha to'qqizta loyiha amalga oshirilmoqda.

Shu kunga qadar mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash uchun ilg'or xorijiy texnologiyalarini joriy etish maqsadida xalqaro moliya institutlarining 441,9 million dollarlik imtiyozli kredit mablag'lari jalb qilindi.

Jumladan, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sektorini rivojlantirish" loyihasi doirasida 150 million dollar miqdorida kredit ajratildi. Fermer xo'jaliklari tomonidan chet davlatlardan 30 ming qoramol va 16,5 ming

bosh qo'y echki, 710 ta ot va tuya keltirildi. Qo'shimcha 2,5 millionta parranda boqish quvvatiga ega uskuna, shuningdek, baliq yetishtirish va sutni qayta ishlash texnologiyalari xarid qilinib, olti mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratildi.

Osiyo taraqqiyot bankining "Chorvachilik sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishni rivojlantirish" loyihasi doirasida chorvachilik tarmoqlarini moliyalashtirish uchun 146 million dollar hamda sohani qo'llab-quvvatlash xizmati va loyihani boshqarish ishlariga 4 million dollar miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Loyiha hisobidan bugungi kunga qadar 112,9 million dollar o'zlashtirilib, 988 ta loyiha bajarildi. Natijada 33 ming bosh naslli qoramol, 55 ming bosh zotdor qo'y-echki, 16,2 mingta naslli quyon, 2 millionta parranda, 273 bosh ot, 138 ta qishloq xo'jaligi texnikasi, yiliga 30 tonna asal olish, 400 tonna junni qayta ishlash, 10 ming 500 tonna sutni qayta ishlash, 7,6 ming tonna baliq yetishtirish, 434 tonna go'shtni qayta ishlash, 22 ming tonna yem ishlab chiqarish quvvatiga ega uskunalar xarid qilindi.

Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti xalqaro jamg'armasining "O'zbekistonning sutchilik sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish" loyihasi doirasida 23,9 million dollar miqdorida imtiyozli krediti ajratildi. Bugungi kungacha loyiha hisobidan 16,7 million dollar o'zlashtirildi. Natijada 432 ta subloyiha amalga oshirilib, 4 ming 342 ming bosh naslli yirik shoxli qoramol, 17 ta subloyiha asosida kuniga 6 tonna sutni qayta ishlash va soatiga 1 tonna yem-xashak ishlab chiqarish quvvatiga ega uskunalar, 92 ta qishloq xo'jaligi texnikasi xarid qilindi, 4 ming 300 dan ziyod doimiy ish o'rni yaratildi.

Fransiya taraqqiyot agentligi ishtirokida "Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish" loyihasi doirasida 100 million yevro imtiyozli kredit hamda Yevropa Ittifoqining 11,5 million yevro grant mablag'lari jalg qilindi. Bundan tashqari, Jahon bankining "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sektorini rivojlantirish" loyihasi doirasida olib borilgan muzokaralar davomida qo'shimcha moliyalashtirish uchun 300 million dollar miqdoridagi mablag' ajratilishi bo'yicha kelishib olindi. Mazkur loyihaning qarz bitimi shu yil imzolanishi kutilmoqda.

Qo'mita tomonidan yurtimizni dunyoning veterinariya va chorvachilik sohalari rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqish bo'yicha samarali mexanizm yo'lga qo'yildi. Jumladan, qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni eksport qilishda uchraydigan muammolarni bartaraf etish va tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha "Eksportni qo'llab-quvvatlash va ko'maklashish shtabi" tashkil etilgan.

Mazkur shtab davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar eksporti tizimli yo'lga qo'yilishi natijasida 2021-yil va 2022-yilning o'tgan davri davomida sezilarli natijalarga erishdi. Jumladan, mahalliy chorvachilik mahsulotlarini eksport qilish uchun 70 ga yaqin xo'jalik yurituvchi subyektga yangi imkoniyat yaratildi, ular Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Qirg'iziston, Ukrayna, Xitoy, Yevropa Ittifoqi bozorlariga mahsulot olib chiqish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Ayni paytda davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi 36 turdag'i tovar 30 dan ortiq davlatga eksport qilinmoqda.

Qo'mita xorijning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ham faol hamkorlik o'rnatmoqda. Jumladan, Germaniya, Vengriya, Chexiya, Portugaliya, Italiya, Polsha, Turkiya, Yaponiya, AQSH, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Tojikiston oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan yetmishdan ortiq hamkorlik shartnomasi, memorandum imzolandi. Buning ham o'ziga xos sabablari bor, albatta. Barcha sohalar qatori chorvachilikda ham mahsulorlikni oshirish, naslchilikni saqlab qolish va ko'paytirish, aholining oziq-ovqatga kun sayin oshayotgan talabini qoplash uchun innovatsiyal ar amaliyotga tatbiq etilyapti. Ularni o'rganib, mamlakatimizda joriy etishdan, tabiiyki, manfaatdormiz.

### Xulosa

Yaqin kelajakda tarmoqdagi yangi mexanizm o‘z samarasini beradi. Aholini sifatli va xavfsiz chorvachilik mahsulotlari bilan to‘liq ta’minalash barobarida mahalliy chorva mahsulotlarini eksport qilish imkoniyati kengayib boraveradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ikromov T. H. Chorvachilik asoslari. Darslik. — T.: «Sharq», 2001.—288 b.
2. Bahadirovich, A. F. (2022). Conditions for Forming the Digital Economy in the Republic of Uzbekistan. Journal of Marketing and Emerging Economics, 2, 88-92.
3. Bahadirovich, A. F. (2021). The Main Directions of State Regulation of Entrepreneurial Activity. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 12, 22-27.
4. Egamberdiyeva Salima Rayimovna, & Aralov Sabir Javli ugli. (2022). Issues of Compliance of Financial Statements with International Standards. Journal of Corporate Finance Management and Banking System ( JCFMBS) ISSN : 2799-1059, 2(02), 1–10. <https://doi.org/10.55529/jcfmbs22.1.10>
5. Yakubova, S. S., Egamberdiyeva, S. R., & Boyqobilov, F. S. (2022). TA’LIM MUASSASASI VA ISHLAB CHIQARISH HAMKORLIGI SALOHIYATLI KADR TAYYORLASHNING ASOSIY OMILIDIR. Gospodarka i Innowacie., 24, 211-216.
6. Tursunov, I., Jumayeva, G., & Ostanov, K. (2017). Features of innovation development of the economy Uzbekistan. In International conference on scientific development in North America (pp. 43-49).
7. Жумаева, Г. Ж., Хасанова, Ю. М., & Рузиев, З. И. СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.
8. Алимханова, А. Н., & Мицель, А. А. (2019). Оценка эффективности предприятий на основе метода DEA. Доклады Томского государственного университета систем управления и радиоэлектроники, 22(2), 104-108.
9. Равшанов, А. Д., Хасанов, Ш. Х., & Алимханова, Н. А. (2018). Қишлоқ хўжалигини инвестицион-инновацион ривожлантириш имкониятлари ва истиқболлари. Экономика и финансы (Узбекистан), (11), 9-14.
10. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Innovatsion texnologiyalar, 1(04), 108-111.
11. Azimova, N. E. (2022). ISSUES OF DEVELOPMENT OF FOREIGN TRADE WITH THE HELP OF FOREIGN INVESTMENTS. Gospodarka i Innowacie., 29, 183-188.
12. Alisher Ravshanov 2022. The city as a social phenomenon: sociological and historical approaches. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL "THE CAUCASUS AND THE WORLD". 24 (May 2022), 153–158. DOI:<https://doi.org/10.52340/isj.2022.24.22>.
13. Kholmurodov, O. (2022). CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 432-436.
14. Normamatovich, Kholmurodov O., et al. "Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework." *JournalNX*, vol. 6, no. 05, 2020, pp. 53-56.

15. Bobaqulovich, R. A. (2022). PROBLEMS OF REFLECTING THE COST OF GOODS AND MATERIAL RESOURCES. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(19), 151-159.
16. Эгамбердиевна, А. Х. (2021). ХОРИЖЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛЬ ЭТИШДА ХУКУКИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Журнал Инновации в Экономике, 4(5).
17. Zoyirovna, M. K. (2022). DYNAMICS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS TO THE ECONOMY OF KASHKADARYA REGION AND THE FACTORS AFFECTING IT. Gospodarka i Innowacje., 29, 226-233
18. Zoyirovna, M. K. (2022). IMPORTANCE OF ENTERPRISES WITH FOREIGN INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY. Gospodarka i Innowacje., 29, 219-225.
19. БУТУНОВ, ИЛ. ВЛИЯНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И БАНКОВСКИХ ФАКТОРОВ НА УРОВЕНЬ НЕДЕЙСТВУЮЩИХ КРЕДИТОВ: РЕЗУЛЬТАТЫ ПО СТРАНАМ СНГ. ECONOMICS, (3), 33-42.
20. Mamasabirovich, M. K., & Hakimovich, B. K. (2023). ORGANIZATION OF PRIVATE CAPITAL ACCOUNTING IN ECONOMIC ENTITIES IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING (IFRS). Gospodarka i Innowacje., 32, 49-54.
21. Khakimovich, B. K. (2019). THE INTERNATIONAL TREATIES FOR THE AVOIDANCE OF DOUBLE TAXATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Review of law sciences, 1(7), 89-91.
22. Ziyadullayevich F. J. et al. MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions. – 2022. – C. 847-852.
23. Farmanov, J. Z., Rimboyeva, N., & Qaxramonov, F. (2022). MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(3), 1191-1197.
24. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2020). Современный экономический механизм развития сельского хозяйства. Вестник науки и образования, (5-1 (83)), 41-45.
25. Hakimovich, B. A. (2021). Measures to Increase the Popularity Of Banking Services. International Journal of Modern Agriculture, 10(2), 3943-3949.
26. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. Gospodarka i Innowacje., 29, 202-206.
27. Туров, Ш. А. (2022). АЁЛЛАР МЕҲНАТИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 127-134.
28. Yakubova, S. (2021). Sh. The role of effective implementation of monetary policy in a pandemic condition/Sh. Sh. Yakubova, MD Raimova. Theoretical & Applied Science, (12), 104.
29. R. H. Djalilov. (2023). PROBLEMS OF CALCULATION OF VALUE ADDED TAX IN THE TAX SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Intent Research Scientific Journal, 2(3), 65–71. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/52>

30. Hamidovich, D. R. (2022). REGULATORY AND LEGAL FRAMEWORK FOR THE ORGANIZATION OF CAMERAL CONTROL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS SIGNIFICANCE. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 49-54.
31. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO ‘JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 390-394.
32. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
33. Музafferova, К. З. (2021). МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. Архив научных исследований, 1(1).
34. Музafferova, К. З. (2019). Роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики Узбекистана. *Экономика и предпринимательство*, (1), 411-414.
35. Аликулов, А. Т. (2020). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ТОРГОВЛИ НА ФОНДОВОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА. In Актуальные вопросы экономики (pp. 63-66).
36. Alikulov, A. T. (2022). In Uzbekistan, the use of the Stock Market in Attracting Financial Resources by Corporate Entities is One of the Tools. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 66-69.
37. Murodov, J. (2020). Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иктисодий ислоҳатлар кўлами. Архив научных исследований, (29).
38. Утанов Б., Маматкулов Б., Ахмедова М., Муродов Дж. и Абдикулова Д. (2021). Взаимосвязь взаимодействия сельскохозяйственного производства с объемом дехканского производства в Узбекистане. *Илкогретим Онлайн*, 20 (3).
39. Atajanovich, M. A., Faizullaevich, K. A., & Akhmatzhanovich, M. M. (2022, October). DEVELOPMENT OF THE INVESTMENT MECHANISM DURING THE TRANSITION TO THE DIGITAL ECONOMY. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 25.10, pp. 292-308).
40. Хуррамов Азамат Файзуллаевич, Арапов Худоёр Мусақулович, & Маматов Мамажан Ахматжанович (2022). МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТАРМОҚ ТАРКИБИНИ ТАКОМИЛЛАШУВИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. *Экономика и финансы* (Узбекистан), (7 (155)), 2-10. doi: 10.34920/EIF/VOL\_2022\_ISSUE\_7\_1
41. <https://yuz.uz/uz>
42. <https://yuz.uz/en/news/vnedryayutsya-nove-podxod-k-rabote-sistemnx-organizatsiy-minselxoza>
43. <https://yuz.uz/uz/news/ozbek---qirgiz-hamkorligini-chuqurlashtirish-yolidagi-keyingi-qadamlar-korib-chiqildi>